



**MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA YUQUMLI
KASALLIKLARNING OLDINI OLIHDA GIGIYENA NAZORATINING
O'RNI**

UO 'K: 613.92:614.46:373.2(575.1)

Boboyeva Iroda O 'tkir qizi

*Samarqand viloyati Narpay tuman Sanitar epidemiologik qo 'mita Sanitar
gigiyenik laboratoriyasi bo 'lim mudiri*

email: irodaboboyeva35@gmail.com

ORCID: 0009-0006-9944-8770

Annotatsiya: *Ushbu maqola orqali maktabgacha ta 'lim tashkilotlari (MTT) larda yuqumli kasalliklarning oldini olish va unda gigiyena nazoratining o 'rni tahlil qilingan. Tadqiqot davomida maktabgacha ta 'lim muassasalarida uchraydigan asosiy yuqumli kasalliklar — respirator, ichak, teri va parazitar infeksiyalar, ularning kelib chiqish sabablari hamda gigiyena sharoitlari bilan bog 'liqligi o 'rganilgan. Shuningdek Sanepidqo 'm Narpay tuman bo 'limining 2024 yillik hisoboti va 2025 yil IX oylik hisoboti asosida MTT bolalari orasida gepatit A kasalligi bilan kasallanish darajasi tahlil qilindi, ma 'lumotlar olindi va xulosa chiqarildi. Maqolada gigiyenik nazoratni kuchaytirish, ota-onalar va tarbiyachilarning gigiyena madaniyatini oshirish, profilaktik emlashni to 'liq amalga oshirish hamda xalqaro tajriba asosida samarali profilaktika dasturlarini joriy etish bo 'yicha takliflar berilgan. Tadqiqot natijalari bolalar sog 'lomligini mustahkamlash va MTT muhitida yuqumli kasalliklar tarqalishini kamaytirishga qaratilgan amaliy tavsiyalarni o 'z ichiga oladi.*

Kalit so 'zlar: *gigiyena nazorati, yuqumli kasalliklar, maktabgacha ta 'lim tashkiloti, profilaktika, emlash, sanitariya, bolalar sog 'lomligi, jamoat gigiyenasi.*

Роль гигиенического контроля в профилактике инфекционных заболеваний в дошкольных образовательных организациях

УДК: 613.92:614.46:373.2(575.1)



Бобоева Ирода Уткир кизи

заведующий отделом санитарно-гигиенической лаборатории

Нарпайского района Самаркандской области

email: irodaboboyeva35@gmail.com

ORCID: 0009-0006-9944-8770

Аннотация: В данной статье анализируется роль профилактики инфекционных заболеваний и гигиенического контроля в дошкольных образовательных организациях (ДОО). В ходе исследования были изучены основные инфекционные заболевания, встречающиеся в дошкольных образовательных учреждениях - респираторные, кишечные, кожные и паразитарные инфекции, их причины и связь с гигиеническими условиями. Также на основе годового отчета Нарпайского районного отдела Санитарно-эпидемиологического комитета за 2024 год и отчет за IX месяц 2025 года был проанализирован уровень заболеваемости гепатитом А среди детей ДООУ, получены данные и сделаны выводы. В статье представлены предложения по усилению гигиенического контроля, повышению гигиенической культуры родителей и воспитателей, полной реализации профилактических прививок и внедрению эффективных профилактических программ на основе международного опыта. Результаты исследования включают практические рекомендации, направленные на укрепление здоровья детей и снижение распространения инфекционных заболеваний в среде ДОО.

Ключевые слова: гигиенический контроль, инфекционные заболевания, дошкольная образовательная организация, профилактика, вакцинация, санитария, здоровье детей, общественная гигиена.

The role of hygiene control in the prevention of infectious diseases in preschool educational organizations

UDC: 613.92:614.46:373.2(575.1)

Boboeva Iroda Utkir kizi



Head of the Department of the Sanitary and Hygienic Laboratory of the
Sanitary and Epidemiological Committee of the Narpay District, Samarkand
Region

email: irodaboboyeva35@gmail.com

ORCID: 0009-0006-9944-8770

Abstract: *Through this article, the role of hygiene control and prevention of infectious diseases in preschool educational organizations (PEOs) is analyzed. The study examined the main infectious diseases encountered in preschool educational institutions - respiratory, intestinal, skin, and parasitic infections, their causes, and their relationship with hygiene conditions. Also, based on the annual report of the Narpay District Department of the Sanitary and Epidemiological Committee for 2024 and the report for the IX month of 2025, the incidence of hepatitis A among children in preschool educational institutions was analyzed, data were obtained, and a conclusion was drawn. The article presents proposals for strengthening hygiene control, raising the hygiene culture of parents and educators, fully implementing preventive vaccinations, and implementing effective preventive programs based on international experience. The research results include practical recommendations aimed at strengthening children's health and reducing the spread of infectious diseases in the preschool environment.*

Keywords: *hygiene control, infectious diseases, preschool educational organization, prevention, vaccination, sanitation, children's health, public hygiene.*

Kirish

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari (MTT) bolalarning ijtimoiylashuvi, bilim olishi va tarbiyalanishida muhim rol o'ynaydi. Shu bilan birga, MTT lari — katta jamoa, yopiq xonalar va doimiy yaqin muloqot tufayli turli yuqumli kasalliklar tez tarqaladigan joylardan biridir. 3–6 yoshli bolalarning immun tizimi to'liq shakllanmaganligi bois ular ko'plab virus va bakteriyalarga nisbatan zaif bo'ladi. Dunyo Sog'liqni Saqlash Tashkiloti (JSST) ma'lumotlariga ko'ra, MTT muassasalarida yuqumli kasalliklar tarqalish xavfi uy sharoitidagi bolalarga nisbatan



2-3 baravar yuqori (Nesti va Goldbaum, 2007). Zamonaviy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, MTT muassasalarida gigiyena nazoratining yetarli darajada amalga oshirilmasligi nafas yo'llari va oshqozon-ichak infeksiyalarining keng tarqalishiga olib keladi (Wu va boshq., 2022; Pidjadee va boshq., 2024).

O'zbekiston Respublikasida maktabgacha ta'lim tizimi rivojlanishi bilan birga, bu muassasalarda yuqumli kasalliklarning oldini olish masalalari alohida ahamiyat kasb etmoqda. Respublikada 2025-yilga kelib 13,000 dan ortiq MTT muassasasi faoliyat yuritmoqda va ularda 1,5 million dan ortiq bola ta'lim olmoqda (O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Qarori, 2019). Ammo bu muassasalarda gigiyena nazorati tizimining zaifligiga oid muammolar hali ham o'z yechimini kutmoqda (Ataniyazova va boshq., 2014). Ushbu maqolada MTT larda yuqumli kasalliklar va ular orasida eng ko'p uchraydigan gepatit A kasalligini oldini olishda gigiyena nazoratining o'rne, kasalliklarning kelib chiqish sabablari va ularni oldini olish yo'llari tahlil qilinadi.

Tadqiqot maqsadi: MTT muassasalarida yuqumli kasalliklarning oldini olishda gigiyena nazoratining o'rne va samaradorligini baholash, hamda bu sohadagi eng yaxshi xalqaro tajribalarni tahlil qilish. Shu bilan birga, MTT muassasalarida keng tarqalgan yuqumli kasalliklarni aniqlash va ularning epidemiologik xususiyatlarini o'rganish, gigiyena nazorati komponentlarini va ularning samaradorligini baholash, xalqaro tajribadan kelib chiqib, eng samarali gigiyena nazorati choralarini aniqlash hamda O'zbekiston sharoitida qo'llash mumkin bo'lgan tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat.

Ushbu tadqiqot quyidagi savollarga javob beradi:

- 1) MTT muassasalarida qanday yuqumli kasalliklar eng ko'p uchraydi?
- 2) Gigiyena nazoratining qaysi komponentlari eng samarali?
- 3) Xalqaro tajribada qanday eng yaxshi amaliyotlar mavjud?
- 4) O'zbekiston sharoitida qanday yondashuvlar eng maqbul?

Adabiyotlar sharhi va nazariy asoslar:

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari bolalarning shaxsiy gigiyena qoidalari, sog'lom turmush tarziga amal qilishi, yuqumli kasalliklardan muhofaza qilish, bilim



olishi va tarbiyalanishi bo'yicha ko'plab ilmiy tadqiqotlar va adabiyotlar mavjud. Masalan, Pidjadee va boshq., (2024) sistematik sharhi ko'rsatishicha, MTT muassasalarida eng ko'p tarqalgan kasalliklar nafas yo'llari infeksiyalari (60-70%), diareya kasalliklari (15-25%) va teri infeksiyalari (8-15%) ni tashkil etadi. Wu va boshq., (2022) randomizatsiyalangan nazorat ostidagi tadqiqoti MTT larida qo'l gigiyenasi dasturi joriy etilgandan so'ng bolalardagi qo'llar mikrobiologik kontaminatsiyasi 62.5% ga kamayganini ko'rsatdi.

Staniford (2020) ning sistematik sharhi MTT larida qo'l gigiyenasi dasturlari diareya kasalliklarini 28-48% ga, nafas yo'llari infeksiyalarini esa 20-50% ga kamaytirganini tasdiqladi. Tahoun va hamkasblarining (2019) Misrda o'tkazilgan tadqiqoti gigiyena nazorati bo'yicha bilimlarning yetarlilik darajasi MTT xodimlarining atigi 2,5% ida borligini aniqladi.

Feng va boshq., (2024) Xitoyda o'tkazilgan katta ko'lamli epidemiologik tadqiqoti MTT muassasalarida gigiyena choralarining o'z vaqtida amalga oshirilishi kasallik tarqalish tezligini 65% gacha kamaytirishini ko'rsatdi.

Okubo va boshq., (2024) Yaponiyadagi tadqiqoti esa pandemiya davrida MTT muassasalarida kuchaytirilgan gigiyena choralari kasallanish darajasini sezilarli darajada pasaytirgani haqida dalillar keltiradi.

Yuqumli kasalliklarning tarqalish zanjiri nazariyasiga ko'ra, yuqumli kasallikning tarqalishi uchun uch asosiy komponent zarur: kasallik manbai, yuqish yo'li va sezgir organizm. MTT muassasalarida gigiyena nazorati aynan bu zanjirni uzishga qaratilgan (Churchill, 2005). Sanitariya va gigiyena baryeri modeli ko'rsatishicha, bir nechta gigiyena baryerlari (qo'l yuvish, sirt tozalash, ventilyatsiya) birgalikda qo'llanilganda maksimal himoya effektiga erishish mumkin (Shane, 2020).

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni Saqlash Vazirligining (2020) "Maktabgacha ta'lim muassasalarida gigiyena va sanitariya qoidalarini" manbasi MTT larda gigiyena qoidalarini belgilaydi va ularning ahamiyatini ta'kidlaydi.



WHO (Jahon Sog'liqni Saqlash Tashkiloti) (2021) "Bolalar va o'smirlar uchun emlash dasturlari" emlashning ahamiyatini va bolalar sog'lig'ini saqlashdagi rolini ko'rsatadi.

UNICEF (2022) "Bolalar sog'lig'ini saqlash va gigiyena" manbasi bolalar sog'lig'ini saqlashda gigiyena va sanitariya muammolarini tahlil qiladi.

Fayzilloyeva (2024) ning bolalar o'rtasida yuqumli kasalliklarning oldini olish: muammo va yechimlar tahlilida yuqumli kasalliklarning oldini olish masalasi nafaqat tibbiy yondashuvlarni, balki ijtimoiy, iqtisodiy va texnologik omillarni ham o'z ichiga olishi bayon qilgan. Uning fikricha innovatsion texnologiyalar, xalqaro tajribalar va jamoat sog'ligi sohasidagi yangiliklar bolalar o'rtasida yuqumli kasalliklarni oldini olishda samarali vosita bo'lib xizmat qilmoqda .

Shuningdek, Tursunova (2025) ning "Bolalarning sog'lom turmush tarzini shakllantirishda gigiyenik tarbiyaning ahamiyati" maqolasida bolalar bilan kundalik faoliyatda shaxsiy gigiyena qoidalariga amal qilish ularning hayot tarzining ajralmas qismiga aylanishi uchun zarurligi ta'kidlanib, shu orqali bolalarda gigiyenik ko'nikmalarni shakllantirish va ularni muntazam ravishda rivojlantirishga e'tibor qaratish lozimligi aytilgan.

Yuqumli kasalliklar profilaktikasi nomli Bekbergenov (2025) tahlilida bolalar orasida keng tarqalgan kasalliklar — respirator infeksiyalar, ichak kasalliklari, virusli va parazitlar infeksiyalar misolida ularning kelib chiqish sabablari, gigiyenik omillar, emlashning ahamiyati va sanitariya sharoitlari yoritilgan.

Ahmedjonova, Qo'ldoshova (2022) larning Maktabgacha yoshdagi bolalarning madaniy-gigiyena malakasini shakllantirish tamoyillari yordamida gigiyena nazoratini to'g'ri yo'lga qo'yish bu muammolarning oldini olish haqida tavsiyalar berilgan.

Ravshanova va To'xtayevalar (2020) maqolasida yuqumli kasalliklarning tarqalishiga sabab bo'layotgan omillarni tahlil qilish va gigiyena nazoratini kuchaytirish orqali ularning oldini olish yo'llarini ko'rish mumkin.



Shuningdek Sanepidqo‘m Narpay tuman bo‘limining 2024 yillik hisoboti va 2025 yil IX oylik hisoboti asosida davlat maktabgacha ta‘lim tashkiloti (DMTT) bolalari orasida gepatit A kasalligi bilan kasallanish darajasi tahlil qilindi, ma‘lumotlar olindi va xulosa chiqarildi.

Metodologiya

Ushbu tadqiqot sistematik adabiyotlar sharhi metodologiyasiga asoslanadi. Qidiruv strategiyasi PubMed, Scopus, Web of Science va Springer ma‘lumotlar bazalarida 2015-2025 yillar oralig‘ida nashr etilgan Q1-Q3 darajasidagi jurnallar bo‘yicha amalga oshirildi. Shuningdek, ushbu tadqiqotda sifatli va miqdoriy metodlar qo‘llanildi, bu esa tadqiqotning har tomonlama va chuqur o‘rganilishini ta‘minladi.

Tadqiqot jarayonida quyidagi metodologik yondashuvlar qo‘llanildi:

1. Sifatli metodlar orqali DMTT larida gigiyena nazoratining amaliyotini o‘rganish maqsadida bir qator intervyu va so‘rovnomalar o‘tkazildi.
2. Tadqiqotda ishtirok etuvchi DMTT xodimlari, gigiyena va epidemiologiya mutaxassislari va ota-onalar bilan chuqur intervyular o‘tkazildi. Tibbiyot xodimlari, tarbiyachilar va ota-onalarning gigiyena borasidagi xabardorlik darajasi o‘rganildi. Intervyular davomida gigiyena nazoratining amaliyotlari, muammolar va ularni hal etish yo‘llari haqida fikrlar yig‘ildi. Intervyu savollari ochiq va yopiq shaklda bo‘lib, ishtirokchilarning fikrlarini kengaytirishga imkon berdi.
3. Tadqiqot davomida 25 ta MTT bo‘yicha mavjud statistik ma‘lumotlar yig‘ildi. Ushbu ma‘lumotlar MTT lardagi gigiyena nazoratining holati, gepatit A tarqalishi va ularning oldini olish bo‘yicha amalga oshirilgan tadbirlar haqida ma‘lumot berdi.
4. Sanepidqo‘m ning Samarqand viloyati Narpay tuman epidemiologiya bo‘limi va bolalar va o‘smirlar gigiyenasi bo‘limidan olingan kasalliklar tarqalishi bo‘yicha hisobotlar tahlil qilindi. Bu hisobotlar MTT larda gigiyena qoidalariga rioya qilinishi va kasalliklar o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlashda yordam berdi.



5. Tadqiqot davomida 25 ta DMTT va 200 ta ota-onadan ma'lumotlar yig'ildi. Ushbu metodik yondashuvlar orqali MTT larda gigiyena nazoratining amaliyoti va uning samaradorligi haqida keng qamrovli ma'lumotlar to'plandi. Gepatit A bilan kasallangan MTT bolalari soni aniqlandi. Tadqiqot natijalari bolalar sog'lig'ini saqlash va gigiyena qoidalariga rioya qilishni yaxshilash bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Tahlil va natijalar muhokamasi

Xalqaro tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, MTT muassasalarida quyidagi kasalliklar eng ko'p uchraydi:

Nafas yo'llari infeksiyalari (60-70%): ORVI, gripp, bronxit va pnevmoniya kabi kasalliklar MTT muassasalarida eng keng tarqalgan (Nesti va Goldbaum, 2007). Ushbu kasalliklar asosan havoda tarqaladigan tomchilar orqali yuqadi va zich joylashgan guruhlarda tez tarqaladi. Nafas yo'llari infeksiyalari orasida gripp va o'tkir respirator virusli infeksiyalar, shuningdek shamollash asoratidan kelib chiqadigan bronxit va pnevmoniya ko'p kuzatiladi, bular havo-tomchi yo'li orqali yuqib, isitma, yo'tal, burun oqishi va umumiy holsizlik bilan namoyon bo'ladi hamda davolash kechiksa og'ir asoratlarni keltirib chiqarishi mumkin. Emlanmagan bolalarda qizamiq, qizilcha va parotit kabi yuqori yuqumli kasalliklar ham tez tarqaladi, ular toshmalar, isitma, limfa tugunlari kattalashishi, quloq bezlarining shishi kabi belgilar bilan namoyon bo'lib, miya yallig'lanishi, bepushtlik kabi xavfli asoratlarni keltirib chiqaradi, shuning uchun emlash juda muhimdir.

Oshqozon- ichak infeksiyalari (15-25%): Norovirus gastroenteriti, rotavirus va bakterial diareya keng tarqalgan (Wu va boshq., 2022). Bu kasalliklar asosan fekal-og'iz yo'li orqali yuqadi va gigiyena qoidalarining buzilishi natijasida rivojlanadi. Rotavirus va enterovirus odatda "bog'cha diareyasi" sifatida namoyon bo'lib, ich ketishi, qayt qilish, qorin og'rig'i va suvsizlanishga olib keladi, dizenteriya, salmonellyoz va E.coli infeksiyalari esa ko'proq sifatsiz ovqat va suv orqali yuqib, qon aralash ich ketishi, og'ir intoksikatsiya va suvsizlanish bilan kechadi.



Teri va ko'z kasalliklari (8-15%): Konyuktivit, dermatit va boshqa teri infeksiyalari kuzatiladi (Feng va boshq., 2024). Bu kasalliklar bevosita kontakt orqali yuqadi. Teri va shilliq qavat kasalliklaridan stafilokokk va streptokokk infeksiyalari yiringli toshmalar, yara va furunkullar bilan kechadi, qo'tir esa kuchli qichishish va mayda toshmalar bilan ifodalanib, to'g'ridan-to'g'ri teri kontakti orqali yuqadi, mikoz (zamburug' infeksiyalari) esa umumiy oyoq kiyim yoki gilam orqali tarqalib, tirnoqlarning mo'rtlashishi va teri qizarishi bilan namoyon bo'ladi.

Parazitar kasalliklar ham keng tarqalgan bo'lib, askaridoz va enterobioz kabi gelmintozlar ko'proq iflos qo'l va yuvilmagan sabzavot-mevalar orqali yuqadi, qorin og'rig'i, uyqusizlik, ishtaha pasayishi va ozib ketishga olib keladi, lyamblioz esa iflos suv va qo'l orqali tarqalib, qorin dam bo'lishi, ich buzilishi va allergik toshmalar bilan namoyon bo'ladi.


MTT larda yuqumli kasalliklarning tarqalishiga ko'plab muammolar sabab bo'ladi va ularning eng asosiylari sanitariya-gigiyena qoidalariga to'liq rioya qilinmasligi bilan bog'liqdir. Masalan, bolalarning qo'lini tez-tez yuvmasligi, o'yinchoqlarni dezinfeksiya qilmasdan qo'llashlari, xo'jalik xonalarida muntazam dezinfeksiya ishlari olib borilmasligi yoki oshxonalarda oziq-ovqat mahsulotlarini to'g'ri saqlash va tayyorlash qoidalariga amal qilinmasligi natijasida infeksiyalar tez tarqaladi. Shuningdek, infratuzilma bilan bog'liq muammolar ham katta rol o'ynaydi, chunki ba'zi MTT larda ventilyatsiya va shamollatish tizimining yetarli emasligi, xonalarda bola sig'imi me'yoridan ortiq bo'lishi (normativ bo'yicha 25 nafar bola bo'lishi kerak bo'lsa, amalda 35–40 bola joylashtirilishi) kasalliklarning biridan boshqasiga yuqish xavfini oshiradi, ichimlik suvi tizimida muammolar bo'lganda esa ichak infeksiyalari tez tarqaladi. Bundan tashqari, kadrlar va nazorat masalalari ham dolzarb bo'lib, ayrim MTT larda tibbiyot xodimlari yetishmasligi, gigiyena bo'yicha muntazam o'quv mashg'ulotlari va nazoratning yo'qligi, ota-onalarning esa gigiyenaga loqayd qarashi natijasida bolalar kasallikka chalinish xavfi kuchayadi. Yana bir muammo — immunitet va emlash bilan bog'liq holatlar bo'lib, ayrim ota-onalarning bolalarini emlatmasligi yoki emlashdan butunlay bosh tortishi, bolalarning vitamin va oqsilga boy ovqatlar bilan yetarli darajada

ta'minlanmasligi, shuningdek ularning surunkali kasalliklarga moyilligi natijasida organizm yuqumli kasalliklarga tezroq chalinadigan bo'lib qoladi. Bularning barchasi birgalikda MTT larda yuqumli kasalliklarning keng tarqalishiga sabab bo'ladi va gigiyena nazoratini kuchaytirish zaruratini yanada oshiradi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, 2025 yilning IX oyi davomida epidemiologiya bo'limiga kelgan murojaatlar va solishtirma tahlillarga ko'ra gepatit A bilan kasallanganlarning umumiy soni 92 tani tashkil etgan bo'lib, shulardan uyushgan yasli yoshidagi (1-2 yoshli) bolalar soni 2 ta, uyushmagan yasli yoshidagi (1-2 yosh) bolalar 6 ta, uyushgan maktabgacha yoshdagi (3-6 yosh) bolalar soni 13 tani, uyushmagan maktabgacha yoshdagi (3-6 yosh) bolalar soni 19 tani tashkil etdi.

2024-yildagi kasallanish holatiga qaraganimizda 992 ta kasallanish holati aniqlangan bo'lib, uyushgan yasli yoshidagi (1-2 yoshli) bolalar soni 19 ta, uyushmagan yasli yoshidagi (1-2 yosh) bolalar 27 ta, uyushgan maktabgacha yoshdagi (3-6 yosh) bolalar soni 226 tani, uyushmagan maktabgacha yoshdagi (3-6 yosh) bolalar soni 117 tani tashkil etgan (1-rasm).

1-rasm: 2024 - yil - 2025 - yil IX oyi bo'yicha gepatit A bilan kasallanish holati



Manba: Muallif tomonidan shakllantirildi



DMTTlarda Gepatit A vaktsinasini targ'iboti va emlash ishlarini olib borilishi natijasida 2024-yildan - 2025-yil IX oyiga nisbatan bolalar o'rtasida kasallanish darajasi uyushgan yasli yoshidagi (1-2 yoshli) bolalar orasida 89% ga (17 ta), maktabgacha yoshdagi (3-6 yosh) bolalar orasida 94% ga (213 taga) kamaygan.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, MTTlarda gigiyena nazoratining kuchaytirilishi kasalliklarning tarqalishini sezilarli darajada kamaytiradi.

To'g'ri qo'l yuvish yuqumli kasalliklarni 40-50% gacha kamaytirishi mumkin (Rabie va Curtis, 2006). Bu eng arzon va eng samarali choradir. O'z vaqtida aniqlangan va ajratilgan kasal bolalar orqali kasalliklarning keyingi tarqalishi oldini olish mumkin (Churchill, 2005). Muntazam yuzalar va kasallikka moyil ashyolarni tozalash va dezinfektsiya qilish, ayniqsa qo'l tegadigan joylarni tozalash muhim ahamiyatga ega (Tahoun va boshqalar, 2019). Wu va boshq., (2022) tadqiqoti bo'yicha aralashuv guruhi bolalarida qo'l gigiyenasi bo'yicha muvaffaqiyatli test natijasi 15.28% dan 37.5% ga oshgan, MTT muhitida sanitariya-gigiyena jihozlari soni sezilarli darajada oshgan. Feng va boshq., (2024) epidemiologik tahlili bo'yicha MTTlar (5.54%) va qishloq maktablarida (4.02%) kasallanish ko'rsatkichi yuqori, 2 kun ichida xabar berilgan holatlarda kasallanish tezligi kam (2.09%), o'z vaqtida choralar ko'rish kasallik davomiyligini qisqartirishga sabab bo'lgan. Ataniyazova va boshq., (2014) tadqiqoti bo'yicha, bog'chalarda qo'l gigiyenasi va og'iz gigiyenasi dasturlari iqtisodiy jihatdan samarali ekanligi isbotlandi. Bu dastur nafas yo'llari (gripp, bronxit, pnevmoniya), ich kasalliklari (diareya, gepatit A) va stomatologik kasalliklar oldini olishda samarali.

Demak, MTTlarida uchraydigan kasalliklarning deyarli barchasi gigiyenaga rioya qilinmaganda, emlash yetarli bo'lmaganda va sanitariya sharoitlari to'liq ta'minlanmaganda tez tarqaladi, shuning uchun ularni oldini olishning eng muhim choralari — gigiyenik nazoratni kuchaytirish, bolalarni tozalikka o'rgatish, otalarni va tarbiyachilarni muntazam ogohlikka chaqirish, oziq-ovqat va suv xavfsizligini ta'minlash hamda emlashni to'liq amalga oshirishdir.



Xalqaro tajriba

Amerika kasalliklarni nazorat va oldini olish markazining (CDC) ko'rsatmalariga ko'ra, MTT muassasalarida gigiyena nazorati quyidagi komponentlarni o'z ichiga oladi: qo'l gigiyenasi, sirt dezinfeksiyasi, havo sifati nazorati va kasal bolalarni ajratish (Churchill, 2005).

Yevropa mamlakatlarida MTT muassasalarida gigiyena standartlari yuqori darajada saqlanadi. Niderlandiyada o'tkazilgan tadqiqot ko'rsatishicha, kompleks gigiyena dasturi joriy etilgandan so'ng kasallanish ko'rsatkichi 71% ga kamaygan (Zomer va boshq., 2015).

Hand Hygiene South Africa loyihasida MTT muassasalarida qo'l gigiyenasi dasturi amalga oshirildi. Natijada diareya kasalliklari 45% ga, nafas yo'llari infeksiyalari 35% ga kamaydi (Mudzikati va boshq., 2022).

Keniyada WASH Benefits dasturi doirasida kompleks sanitariya-gigiyena choralar amalga oshirildi. Bu nafas yo'llari infeksiyalarini sezilarli darajada kamaytirdi (Null va boshq., 2020).

Qozog'iston Respublikasida MTT muassasalarida "Sog'lom bola xonalari" tashabbusi amalga oshirilmoqda. Bu dastur bolalar sog'lig'ini nazorat qilish va ota-onalarni ta'lim berish yo'nalishlarini o'z ichiga oladi (UNICEF, 2021).

Xalqaro standartlar

JSST tavsiyalariga ko'ra qo'llarni kamida 20 soniya davomida sovun bilan yuvish, alkogol asosidagi antiseptiklar ishlatish, kasal bolalarni 24 soatdan so'ng simptomlar yo'qolgandan keyin qaytarish, xonalarda havo almashinuvini ta'minlash muhimdir.

UNICEF standartlariga ko'ra har 20 bolaga 1 ta rakvina tashkil qilish, toza suvning doimiy ta'minotiga erishish, shaxsiy gigiyena vositalarining mavjudligi va xodimlarning muntazam tibbiy ko'rigining mavjudligi kasallanishning birmuncha kamayishiga sabab bo'ladi.

Xulosa va tavsiyalar



Olingan ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, gigiyenik nazoratni kuchaytirish yuqumli kasalliklarning oldini olishda eng muhim omil hisoblanadi. Samarali natijaga erishish uchun quyidagi chora-tadbirlar zarur ya'ni,

- **Shaxsiy gigiyena choralari kuchaytirish:** Bolalarda qo'l yuvish odatini shakllantirish, ya'ni har ovqatdan oldin, hojatxonadan chiqqandan so'ng, ko'chadan kirganda albatta qo'lni sovunlab yuvishga o'rgatish, ularga shaxsiy sochiq, tish cho'tkasi, taroq kabi buyumlarni alohida berish zarur. Tarbiyachilar esa bolalarning shaxsiy gigiyena odatlarini doimiy nazorat qilib, kerak bo'lganda eslatib turishi lozim. Bu orqali kasalliklarning bir boladan boshqasiga yuqishi sezilarli darajada kamayadi.

- **Jamoat gigiyenasini ta'minlash:** MTT xonalari muntazam ravishda shamollatilib turilishi, pol va mebellar dezinfeksiya qilinishi, o'yinchoqlar esa maxsus vositalar bilan haftasiga kamida 2–3 marta yuvilishi kerak.

Oshxona gigiyenasi ham alohida e'tibor talab etadi: oziq-ovqat mahsulotlari to'g'ri saqlanishi, oshxona xodimlari muntazam ravishda tibbiy ko'rikdan o'tishi shart. Aks holda oshqozon-ichak kasalliklari va ichak infeksiyalarining tarqalish xavfi ortadi.

- **Sog'liqni nazorat qilish:** Har kuni ertalab bolalarni tibbiy ko'rikdan o'tkazib, ularning tana harorati, terida toshmalar, yo'tal, burun oqishi kabi belgilariga alohida e'tibor berilishi kerak. Kasallik belgilari kuzatilgan bolalarni vaqtida ajratib olish va jamoaga qo'ymaslik muhim ahamiyatga ega, chunki bitta kasal bola butun guruh bolalariga infeksiya yuqtirishi mumkin. Davolash jarayonlari esa mutaxassis shifokor nazorati ostida amalga oshirilishi kerak.

- **Profilaktik emlash:** Profilaktik emlashlar ham katta ahamiyatga ega bo'lib, Milliy emlash kalendari asosida barcha bolalarni o'z vaqtida emlash yuqumli kasalliklarning oldini olishda asosiy kafolat hisoblanadi. Masalan, 2023-yilda O'zbekistonda OPV bo'yicha emlash ko'rsatkichlari 99 foizga yetgani, WHO va UNICEF ma'lumotlariga ko'ra, yaxshi natija bo'lib, bu orqali ko'plab xavfli kasalliklarning tarqalishi oldi olindi. Aynan emizikli yoshda o'tkazilgan emlashlar bog'cha yoshida bolalarning kasallanishini sezilarli darajada kamaytiradi. Bundan



tashqari bolalarni MTT larga qabul jarayonida gepatit A ga qarshi emlash tizimini joriy qilish va yanada targ'iboti bolalar o'rtasida kasallanish ko'rsatkichini kamayishiga sabab bo'ladi. Shuningdek emlash natijasida 15 yilgacha organizmda saqlanuvchi himoya qobiliyati kasallanish darajasini birmuncha pasaytiradi.

- **Ota-onalarni jalb qilish:** Gigiyena choralari kuchaytirishda ota-onalarni ham faol jalb etish muhimdir. Ular uchun gigiyena va infeksiya profilaktikasi bo'yicha muntazam seminarlar tashkil etish, bolani kasal bo'lganida vaqtida MTTga yubormaslikka qat'iy amal qilishni talab etish, uy sharoitida ham gigiyenaga rioya qilish odatlarini shakllantirish zarur. Chunki ota-onalar gigiyena qoidalariga loqayd qarasa, MTT dagi barcha choralar samarasiz bo'lib qolishi mumkin.

Bundan tashqari, gigiyenik muammolarni yengish uchun bir qator amaliy takliflar mavjud. Avvalo, sanitariya nazoratini kuchaytirish zarur bo'lib, har oyda Sog'liqni Saqlash Vazirligi va Sanitariya-epidemiologiya qo'mitasi tomonidan tekshiruvlar o'tkazilishi shart. Tarbiyachilarni maxsus kurslar orqali gigiyena, ovqatlanish va birinchi tibbiy yordam ko'nikmalariga o'rgatish ham dolzarb. Shuningdek, MTT infratuzilmasini yangilash, ya'ni shamollatish tizimlarini yaxshilash, ichimlik suvi ta'minotini isloh qilish, gigiyena vositalari bilan doimiy ta'minlash zarur. Yuqumli kasalliklar statistikasi bo'yicha onlayn monitoring tizimini yo'lga qo'yish ham muhim bo'lib, bu orqali qaysi mahalladagi qaysi DMTTlarida qanday kasalliklar ko'proq uchrayotgani real vaqt rejimida kuzatilib, tezkor choralar ko'riladi. Hamda gigiyena qoidalarini bolalarda shakllantirish maqsadida turli o'yinlar, tanlovlar, rasmlar va musobaqalar orqali targ'ibot ishlari olib borilishi mumkin. Oshxona xavfsizligini oshirish esa yana bir ustuvor masala bo'lib, bunda ovqatlanish blokida sanitariya talablarini qat'iy nazorat qilish, oziq-ovqat mahsulotlarining sifatini sinchkovlik bilan tekshirish lozim.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, MTT muassasalarida yuqumli kasalliklar xavfi uy sharoitiga nisbatan 2-3 barobar yuqori. Xalqaro tajribaga ko'ra, qo'l gigiyenasi yuqumli kasalliklarni 40-50% gacha kamaytiradi va eng kam harajat talab qiladi. Shu sababli yakka gigiyena choralari emas, balki kompleks dastur (qo'l



gigiyenasi + yuza dezinfeksiyasi + kasal bolalarni ajratish + ta'lim) maksimal samara beradi. Bundan tashqari gigiyena bo'yicha bilimli xodimlar kasalliklarning oldini olishda asosiy rol o'ynaydi. Shuningdek yetarli sanitariya-gigiyena infratuzilmasi (qo'l yuvish vositalari, sovun, antiseptiklar) gigiyena choralarining muvaffaqiyati uchun ham muhimdir.

MTT xodimlariga gigiyena bo'yicha majburiy ta'lim dasturini joriy etish, barcha MTT muassasalarida asosiy gigiyena vositalarini ta'minlash, kasal bolalarni aniqlash va ajratish tartibini belgilash O'zbekiston uchun maxsus qisqa muddatli 1 yillik tavsiyalar sifatida kirsada muassasada sanitariya-gigiyena infratuzilmasini yaxshilash, muntazam monitoring va baholash tizimini yaratish, ota-onalar bilan ishlash dasturini ishlab chiqish o'rta muddatli (2-3 yillik) tavsiyalardir.

Uzoq muddatli (5 yillik) tavsiyalarga MTT muassasalari uchun milliy gigiyena standartlarini ishlab chiqish, gigiyena nazorati bo'yicha mutaxassis kadrlar tayyorlash, yuqumli kasalliklar monitoring tizimini yaratishlarni misol qilib keltirish mumkin.

MTT larda gigiyena dasturlarining mahalliy sharoitdagi samaradorligini baholash, harajat-samaradorlik koeffitsiyentini hisoblash, Gigiyena choralarining uzoq muddatli ta'sirini baholash, raqamli texnologiyalarning MTT gigiyena nazoratidagi rolini o'rganish, mahalliy-madaniy omillarning gigiyena choralariga ta'sirini aniqlash kelgusi tadqiqotlar uchun yo'nalishlar vazifasini o'taydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ataniyazova, O.A., Negmatov, B., Parpiev, O. (2014). A Cost-Benefit Analysis of Early Childhood Hygiene Interventions in Uzbekistan. *European Journal of Business and Economics*, 7(14), 183-189.
2. Churchill, R.B. (2005). Infection control challenges in child-care facilities and other pediatric community-based settings. *Infection Control and Hospital Epidemiology*, 26(2), 185-190.
3. Feng, Y., Chen, S., Zhang, L., et al. (2024). Epidemiological characteristics of infectious disease outbreaks in schools in Zhejiang Province, China. *Frontiers in Public Health*, 12, 1362847.



4. Nesti, M.M., Goldbaum, M. (2007). Infectious diseases and daycare and preschool education. *Jornal de Pediatria*, 83(4), 299-312.
5. Okubo, Y., Michihata, N., Morisaki, N. (2024). Infection prevention measures and its determinants in childcare facilities during the COVID-19 pandemic in Japan. *Journal of Infection and Chemotherapy*, 30(3), 234-241.
6. Pijadee, C., Klunklin, A., Suksatit, B., et al. (2024). The effect of infection prevention and control programme for childcare workers in daycare centres: A systematic review and meta-analysis. *Journal of Clinical Nursing*, 33(8), 2892-2906.
7. Rabie, T., Curtis, V. (2006). Handwashing and risk of respiratory infections: a quantitative systematic review. *Tropical Medicine & International Health*, 11(3), 258-267.
8. Shane, A.L. (2020). Infections associated with group childcare. *Red Book: 2021-2024 Report of the Committee on Infectious Diseases*, 32nd ed, 132-151.
9. Staniford, L.J., Schmidtke, K.A., Watson, S., et al. (2020). A systematic review of hand-hygiene and environmental-disinfection interventions in settings with children. *BMC Public Health*, 20, 195.
10. Tahoun, M.M., Hassan, A.A., Elkashef, W.F., et al. (2019). Infection control in child daycare centers in Alexandria, Egypt. *Journal of Infection and Public Health*, 12(3), 372-379.
11. Wu, S., Zhu, Q., Yang, Y., et al. (2022). Effect of hand hygiene intervention in community kindergartens of Changsha. *International Journal of Environmental Research and Public Health*, 19(21), 14349.
12. Zomer, T.P., Erasmus, V., van Empelen, P., et al. (2015). A hand hygiene intervention to reduce infections in child daycare: a randomized controlled trial. *Epidemiology and Infection*, 143(12), 2494-2502.
13. **Ahmedjonova, N.A. va Qo'ldoshova, V.F. (2022) Maktabgacha yoshdagi bolalarning madaniy-gigiyena malakasini shakllantirish tamoyillari.** Uchenyy XXI veka, (3[84]), p.36.



14. **Bekbergenov, N.U. (2025)** *Yuqumli kasalliklar profilaktikasi*. Ilm fan xabarnomasi, 10(1).
15. **Fayzilloyeva, N.F. (2024)** *Bolalar o'rtasida yuqumli kasalliklarning oldini olish: muammo va yechimlar tahlili*. Innovative Academy, pp.24–27.
16. **Tursunova, N. (2025)** *Bolalarning sog'lom turmush tarzini shakllantirishda gigienik tarbiyaning ahamiyati*. Akademik tadqiqotlar zamonaviy fanlarda, 4(4), pp.118–122.
17. **O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni Saqlash Vazirligi. (2020)** *Maktabgacha ta'lim muassasalarida gigiyena va sanitariya qoidalari*. Toshkent: SSV.
18. **World Health Organization (WHO). (2021)** *Bolalar va o'smirlar uchun emlash dasturlari*. Geneva: WHO.
19. **UNICEF. (2022)** *Bolalar sog'lig'ini saqlash va gigiyena*. New York: UNICEF.
20. **Sanepidqo'm Narpay tuman bo'limi. (2024)** *Yillik hisobot*. pp.5–6.
21. **Sanepidqo'm Narpay tuman bo'limi. (2025)** *To'qqiz oylik hisobot*. pp.7–8, 12.
22. **Ravshanova, M.Y. , To'xtayeva, N.T. (2020)** *Yuqumli kasalliklarning epidemiologiyasi va profilaktikasi*. Toshkent: Tibbiyot nashriyoti.